

## INVESTITSION FAOLIYAT VA TASHQI KREDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNING O`ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O`RNI

**Baxridinov Jahonbek Azimjon o`g`li**

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo`rg`on filiali*

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti*

*“Bank ishi va audit” ta`lim yo`nalishi*

*21\_08 guruh talabasi*

*Tel: 93 230-08-11*

**O`tamurodov Elshod Kamoliddin o`g`li**

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo`rg`on filiali*

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti*

*“Bank ishi va audit” ta`lim yo`nalishi*

*21\_07 guruh talabasi*

*Tel: 93 348-05-92*

**Muzaffarov Dilshodbek Bahodir o`g`li**

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo`rg`on filiali*

*Aniq va tabiiy fanlar fakulteti*

*“Bank ishi va audit” ta`lim yo`nalishi*

*21\_08 guruh talabasi*

*Tel: 99 167-53-57*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada investitsiya faoliyati va tashqi kredit siyosatining iqtisodiy mazmun-mohiyati, ularning barqaror iqtisodiy yuksalishni ta`minlashda muhim omil sifatidagi ahamiyati hamda faol investitsiya va kredit siyosatini olib borishda davlat boshqaruvi, shuningdek O`zbekiston iqtisodiyotida investitsion jarayonlar to`g`risida malumotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** Investitsiya, kredit, investitsion faoliyat, tashqi qarz, investitsion siyosat, tashqi kredit siyosati.

**Abstract:** This article provides information on the economic essence of investment activity and foreign credit policy, their importance as an important factor in ensuring stable economic growth, and state management in conducting an active investment and credit policy, as well as information on investment processes in the economy of Uzbekistan.

**Keywords:** Investment, credit, investment activity, external loans, investment policy, external credit policy.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается экономическая сущность инвестиционной деятельности и внешнекредитной политики, их значение как важного фактора обеспечения стабильного экономического роста, а также

информация о государственном управлении при проведении активной инвестиционно-кредитной политики, а также информация об инвестиционных процессах в экономике Узбекистана дан.


**Ключевые слова:** инвестиции, кредит, инвестиционная деятельность, внешний долг, инвестиционная политика, внешнекредитная политика.

### Kirish.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya'ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog'liq. Har qanday jamiyatning baraqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda har qanday mamlakatning bundan keyingi yuksalishi investitsiyalarni jalb etish holatiga bog'liqligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, qarz, ya'ni tashqi kreditlar, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlanishni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Investitsiya milliy iqtisodiyotda nisbatan yangi termin hisoblanadi. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida<sup>1</sup> "Investitsiya" so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: Investitsiya (lot. investio - o'rash) - iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish) dir.


O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida esa investitsiyalar tayinlangan obyekti bo'yicha tabaqalashtirilgan. Shunga muvofiq investitsiyalar quyidagi turlarga ajratilgan. (2-rasm)<sup>2</sup>:



### 1-rasm. Investitsiyalarning tasniflanishi

#### Natijalar.

2024-yilning yanvar-mart oylarida jami 107,1 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 174,5% ni tashkil etdi. Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 75,9% yoki 81,3 trln. so'm investitsiyalar jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 24,1% yoki 25,8 trln. so'm moliyalashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da



Yuqori ulushga ega 8 ta investor-mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, jamiga nisbatan % da hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd. so'm

	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>33 280,7</b>	<b>5 186,8</b>	<b>35 299,5</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	401,9	137,8	2 651,1
Andijon	2 405,8	119,7	1 440,7
Buxoro	4 810,8	339,6	3 515,7
Jizzax	2 301,5	64,2	1 393,8
Qashqadaryo	2 558,6	486,7	4 059,2
Navoiy	2 706,8	806,2	4 090,6
Namangan	2 611,7	196,2	4 234,2
Samarqand	1 317,8	150,4	3 101,1
Surxondaryo	2 720,2	402,4	1 611,8
Sirdaryo	1 177,6	18,4	841,1
Toshkent	4 055,8	272,5	4 331,6
Farg'ona	1 825,8	21,6	882,6
Xorazm	210,3	83,8	1 295,6
Toshkent sh.	4 176,2	2 087,3	1 850,4

### Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va tashqi kredit siyosatini olib borish iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yurtimizga zamonaviy texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Investitsiya loyihalarini jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmish darajasini

yaxshilashda ham katta samara beradi. Ya'ni maishiy muhtojliklarning katta bo'limi qanoatlantiriladi, ishlab chiqarish kengayadi, yangi mehnat kuchlari shakllanadi, eski va og'ir mehnat turmushidan yangi, yengil va samarali mehnat faoliyatiga o'tiladi. Huddi shu asnoda iqtisodiyotni liberallashtirish va xalqaro kreditlardan samarali foydalanish rivojlanayotgan mamlakatga rivojlangan mamlakatlar bilan eksport va import kabi savdo, shuningdek, ushbu boy mamlakatlar tomonidan taqdim etilgan kreditlar va investitsiyalar kabi moliya sohasida o'zaro aloqa qilish imkonini beradi. O'zbekiston hali ham davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishda ham, o'sishni moliyalashtirishda ham o'z moliyasini boshqarishdagi muammolarni bartaraf etishi kerak. Iqtisodiyotni liberallashtirish va tashqi kreditlar esa rivojlanayotgan mamlakatlar hukumatiga bunday muammolarni hal qilishga yordam beradi. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish darajasini bugungi jalb qilingan investitsiya loyihalari va investitsion jarayonlar hamda samarali foydalanilgan tashqi kreditlar belgilab beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi T.: «O`ME» davlat ilmiy nashriyoti. 2002. 4-tom. – B. 145.
2. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 9-dekabrda O`RQ-380-sonli “Investitsiya faoliyati to`g`risida”gi qonunining yangi tahriri.
3. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) Davlat statistika qo`mitasi ma'lumotlari.